IJTIMOIY PSIXOLOGIYADA “MEN” KONSEPTSIYASINING MOHIYATI

Soyibova Shohsanam Mo’min qizi

UBS Pedagogika va psixologiya fakulteti

22-26 guruh talabasi.

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20131750

Annotatsiya: Ijtimoiy psixologiya ancha murakkab va uzoq davr mobaynida shakllanuvchi jarayon bo’lib, u ilk bolalik davridan boshlanib, toki umr oxirigacha shakllanib boradi. Ushbu maqolada jamiyatda shaxslararo munosabatlarda shaxsda turli hildagi xolatlarda o‘zining xatti harakatlarini va o‘z egosini anglashi va shaxsiy davogarlik darajasi xaqida to’xtalib o’tiladi. Bundan tashqari ushbu maqolada insonda “Men” shakllanish jarayoni davrlarga bo’lib o’rganilgan va ushbu mavzuda fikr yuritgan xorijiy olim va tadqiqotchilarning fikrlari xam o’rganilib keltirilgan. “Men” konsepsiyasini o’rganish shunisi bilan muhimki, bunda insonni shaxsiy fikrlashi, o’zini hurmat qilishi, o’zi uchun kurashishi kabi muhim xayotiy omillarni o’rganish va tadqiq etish mumkin.

Annotation: Social psychology is a rather complex and long-term process that begins in early childhood and continues to develop throughout life. This article discusses the individual's understanding of his own actions and his own ego in various situations in interpersonal relationships in society, as well as the level of personal autonomy. In addition, this article studies the process of the formation of the "I" in a person in stages, and the opinions of foreign scientists and researchers who have thought about this topic are also studied. Studying the concept of "I" is important because it allows you to study and research such important vital factors as personal thinking, self-respect, and self-defense

Mavzuning o’rganilganligi

"Men" konsepsiyasi (Self-concept) — bu insonning o‘zi haqidagi tasavvurlari, bilimlari va baholashlarining tizimli majmuidir. Chet el psixologiyasida ushbu tushuncha shaxs rivojlanishining asosi sifatida qaraladi.Quyida "Men" konsepsiyasi bo‘yicha chet ellik olimlarning asosiy fikrlari va yondashuvlari keltirilgan:

1. Klassik Yondashuvlar (U. Jeyms va Ch. Kuli) Uilyam Jeyms (William James): "Men" konsepsiyasining asoschilaridan biri. U "Men"ni ikki qismga bo‘lgan:I (Subyektiv Men - "biluvchi Men"): Ongli faoliyatni amalga oshiruvchi.

Me (Obyektiv Men - "bilinuvchi Men"): Insonning o‘zi haqida bilganlari (tashqi ko‘rinish, ijtimoiy maqom, qobiliyatlar).

Charlz Kuli (Charles Cooley): "Oynali Men" (Looking-glass Self) nazariyasini ilgari surgan. Unga ko‘ra, inson o‘zi haqidagi tasavvurni boshqa odamlarning unga bo‘lgan munosabati va bahosiga qarab shakllantiradi.

2. Kognitiv va Fenomenologik Yondashuvlar

Karl Rojers (Carl Rogers): Insonparvarlik psixologiyasining vakili. U "Men" konsepsiyasini shaxsning asosiy tarkibiy qismi deb hisoblagan. Rojers Real Men (inson o‘zini qanday ko‘rishi) va Ideal Men (inson kim bo‘lishni xohlaydi) o‘rtasidagi tafovutga e’tibor qaratgan. Ushbu ikki "Men" o‘rtasidagi nomuvofiqlik psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

Erik Erikson: "Men" konsepsiyasining shakllanishini shaxsning umr davomida rivojlanib borishi va o‘zlikni anglash jarayoni bilan bog‘lagan.

3. Ijtimoiy-Psixologik Yondashuvlar

Gordom Ollport (Gordon Allport): Shaxsning o‘zini anglashini uning ijtimoiylashuvi va shaxsiy o‘sishi bilan bog‘lagan. Uning fikricha, "Men" konsepsiyasi insonning dunyoni anglashida markaziy o‘rin tutadi.

D.B. Elkonin va L.S. Vigotskiy: Garchi ular sovet psixologlari bo‘lsa-da, ularning qarashlari xalqaro hamjamiyatda katta o‘rin tutadi. Ular "Men" konsepsiyasining shakllanishini faoliyat va muloqot jarayoni, ayniqsa, kattalar bilan o‘zaro ta’sirda yuzaga kelishini ta’kidlaganlar[1].

Kirish

“Men” – obrazi xar bir shaxsda turlicha shakllanadi. Bunga inson ulg’aygan oilaviy sharoiti, tashqi muhit ta’siri va shu shaxsning tug’ma fe’l atvori va boshqalar ta’sir o’tkazishi mumkin. Insonlar ulg’aygan sari o’zlariga turlicha baho bera boshlaydilar. Bunday baholashlarda boshqalarning ham fikrlari muhim o’rin tutadi. Misol uchun maktab yoshidagi bolaga qaysidir fan o’qituvchisi ijobiy fikrlarni bildirsa bu bola ongiga ijobiy ta’sir etadi va shu fanga qiziqishi va men shu fanni yaxshi o’zlashtira olaman degan ishonch paydo bo’ladi. Ayniqsa bolada tengdoshlari bilan ma’lum bir munosabatlarning yuzaga kelishi, «bolalar jamiyati»ning shakllanishi maktabgacha yoshning muhim xususiyati bo‘lib hisoblanadi[2]. Ushbu maqolada “men” konsepsiyasi shakllanishi, uning bosqichlari va inson xayotidagi o’rni haqida ma’lumotlar berilgan.

Asosiy qism

Yuqorida ta’kidlab o’tilgan chet el olimlari fikrlari va tahlillariga ko’ra “Men” konsepsiyasi o’zgaruvchan psihologik hodisa bo’lib, u quyidagi turlarni o’z ichiga oladi: birinchidan, Jismoniy “Men”: tana tuzilishi, sog’liq va jismoniy qobiliyatlar. Ikkinchidan, ijtimoiy “Men”: boshqalar bilan munosabatdagi o’rni. Uchinchidan, ruhiy/aqliy “Men”: qobiliyatlar va intellektual xususiyatlar. To’rtinchidan axloqiy “Men”: o’z-o’ziga baho berish va qadriyatlar. Bir so’z bilan aytganda chet el olimlari “Men” konsepsiyasini shaxsning o’zi haqidagi nazariyasi deb ta’riflaydilar va bu nazariya uning xulq-atvori va hayotiy maqsadlarini belgilaydi[3]. Insonda "Men" konsepsiyasi (o‘zlikni anglash, self-concept) umr davomida shakllanib, rivojlanib boradigan murakkab psixologik jarayondir. Inson shaxsi psohologiyasi juda murakkab bo’lib uni bosqichlarga bo’lmasdan o’rganib bo’lmaydi. Bu jarayon bir necha asosiy bosqichlarga bo‘linadi, quyidagi jadvalda “Men” konsepsiyasi shakllanish bosqichlar haqida va ularning shakllanish yoshlari haqida to’xtalamiz. Ushbu jadval internet ma’lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

1-jadval

“Men” konsepsiyasi shakllanish davrlari	“Men” konsepsiyasi shakllanish yoshlari	Ta’riflari
Ilk bolalik davri	1-3 yosh	"Men" tushunchasining kurtaklari paydo bo‘ladi. Bola o‘zini atrof-muhitdan va onasidan ajrata boshlaydi
Maktabgacha ta’lim davri	3-7 yosh	"Men" obrazi ijtimoiy munosabatlar ta'sirida kengayadi. Bola o‘zining jinsi, ismi va qobiliyatlarini anglay boshlaydi.
Kichik maktab davri	7-11 yosh	O‘zlikni anglashda o‘qituvchi va tengdoshlarning bahosi muhim o‘rin tutadi. "Men" ijtimoiy xususiyatlar (o‘quvchi, do‘st) bilan boyiydi.

O’smirlik davri	12-15 yosh	"Men" konsepsiyasining eng jadal shakllanish davri. O‘smir o‘z ichki dunyosi, hissiyotlari va qadriyatlarini tahlil qiladi.
O’spirinlik va voyaga yetish davri	16-25 yosh	"Men" obrazi barqarorlashadi. Shaxs o‘zining kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy maqsadlarini aniq belgilaydi.

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, inson shaxs sifatida o’zini anglash jarayoni uzoq va bosqichma –bosqich amalga oshadi. Bu jarayon shakllanishida maktab va ota-onalarni o’rni juda katta bo’lishi xamma ma’lum.

Ijtimoiy psixologiyada “Men” konsepsiyasi bir nechta tarkibiy qismlarga bo’lib o’rganiladi bularga:

1. Kognitiv (bilish)- o’zi haqida tasavvurlar (tashqi ko’rinish, qobiliyatlar);
2. Emotsional (xissiy)- O‘zini o‘zi baholash, o‘zini sevish yoki rad etish.
3. Xulq-atvor: O‘zlik haqidagi tasavvurlarga asoslangan harakatlar[4].

Bu qismlar insonning butun hayoti davomida o’zgarib yangilanib boradi. Inson butun umri davomida o’zligini anglash, ijtimoiy hayotda o’z o’rnini topishga intilib yashaydi. Shaxs psixologiyasi psixologiya fanining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shaxsning ichki olami, uning o‘zini anglash darajasi, tashqi muhitga moslashuvi va ijtimoiy munosabatlaridagi faoliyati asrlar davomida olimlarni qiziqtirib kelgan. Ayniqsa, shaxsdagi “Men” (ya’ni “Men-obraz”, “Men-hissiyot”, “Men-funktsiya”) konsepsiyasi shaxsni anglashning markazida turadi. Bu tushuncha insonning o‘zini o‘zi qanday qabul qilishi, baholashi, anglashini ifodalaydi[5]. Shaxsning ichki mohiyati bo‘lgan “Men” konsepsiyasi psixologik jihatdan insonning o‘zini ongli ravishda anglash, qabul qilish va o‘ziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonidir. U shaxsiy rivojlanishning kalit omili hisoblanadi. Psixoanalitik, gumanistik va zamonaviy yondashuvlarning har biri bu konsepsiyani turlicha sharhlasa-da, umumiy maqsad –insonning o‘zini to‘liq anglash va hayotda ma’naviy kamolotga erishishdir. Shuningdek, bolalik davrida o‘zini anglash, o‘smirlik davrida identiklik izlash, katta yoshlarda esa o‘zining jamiyatdagi o‘rnini belgilash —bularning barchasi “Men” konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. “Men”ni anglash orqali inson o‘z hayot yo‘lini, maqsadini, qadriyatlarini belgilab oladi. Bugungi zamonda “Men” konsepsiyasini chuqur tushunish psixologik sog‘lomlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va ruhiy barqarorlik uchun zaruriy shartdir[6]. Bolalarda o’zlikni anglash yoshlikdan boshlansada u keyinchalik maktab davri va katta hayotda butun bir jamiyat bilan uyg’unlashib ketadi. Bolaning psixik rivojlanishi uning ruhiyatiga ta’sir ko’rsatuvchi obyektiv.va subyektiv omillarga, xususan undagi o’zlikni anglash, o’ziga-o’zi beradigan baholar hamda munosabatlarning xarakteriga bog’liqdir. Bu, avvalo, inson shaxsining psixologik asoslarini shakllantiruvchi, uning emotsional, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratuvchi ontogenezning dastlabki bosqichlariga taalluqlidir. Bunda oiladagi munosabatlar, xususan,ota-onalar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar, shuningdek, ota-ona va farzandlar o’rtasida o’rnatiladigan munosabatlarning tabiati katta rol o’ynaydi. Bolalar va kattalar turli sohalardagi faoliyatlarida- mehnat, o’yin, o’qish va iqtisodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ba’zi bir odam bir ishni sekinlik bilan bajarsa, bir kishi tezlik bilan bajaradi. Ayrim kishilarning faoliyatlari samarali, serunum bo’lsa,

boshqalarniki esa kam unum bo'ladi. Ba'zi odamlar o'z ishlarida ijodiy, original usullarni ko'proq qo'llasa, ba'zi bir kishilarning ishlarida esa bunday usullar kamroq ko'rinadi. Kishilar faoliyatining mana shu xususiyatiga qarab, biz ularning qobiliyatlarini qandayligini aniqlab olamiz[7]. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limtarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqish hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi masalasiga alohida urg'u berilgan. Ko'plab psixologik tadqiqotlarda oila, bola shaxsining shakllanishi va uning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiypsixologik tayyorgarligiga ham bog'liq. Katta bog'cha yoshdagi bolalar asosan maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin. Har bir bola jamoaga qo'shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur.Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. Shaxs doimiy ravishda shaxslararo munosabatlarga kirishar ekan o'zining hatti harakatlarini nazorat qiladi va turli hildagi ijtimoiy rollarga kirishadi va o'zining jamiyatda statusni egalaydi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxslararo munosabatlar bilan o'zaro muloqotga kirishgandan so'ng inson o'zini atrofdagi muhitdan ajratadi, o'zidagi jismoniy va ruhiy holatlar, harakatlar va jarayonlarning sub'ekti sifatida his etadi. Shunday qilib, shaxsning o'zini anglashi o'zini baholash mexanizmidan foydalanib, diqqat bilan shaxsiy da'vogarlik va haqiqiy yutuqlar nisbatini qayd etadi. Har bir shaxs eng birinchi navbatda o'z men konsepsiyasida me'yor va norma degan tamoyilni to'g'ri anglab yetishi kerak va shaxslararo munosabatlarda psixologik ko'rsatkichlari shaxsiy davogarlik jarayonlarini ham o'zida aks etirishini yuqoridagi nazariy manbalarda guvohi bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Google.com
2. Daminova Rayxona G'ulomiddinovna Navoiy shahar 24 – sonli "Qaldirg'och" Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi http://www.newjournal.org/ Volume–13_Issue-1_September_2022 51
3. https://soft.uz/psixologiya
4. Arxiv.uz/psixologiya
5. Karimova Z.T. Umumiy psixologiya. –Toshkent: O'qituvchi, 2019.
6. Rahimberdiyeva Mehriniso Xosilbek qizi. "Zamonaviy psixologiyada "Men" obrazining o'zgarishi" Ajiniyoz nomidagi NDPIning Pedogogika fakulteti Psixologiya talim yònalishi 2-Z guruh talabasi. https://doi.org/10.5281/zenodo.
7. "Umumiy psixologiya" P.I. Ivanov, M.E.Zufarova. Toshkent-2023.